

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, Andijon viloyatida jami 1162,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida, xususan, Andijon shahri (351,0 mlrd so'm), Andijon tuman (91,0 mlrd so'm) va Shahrixon tumanda (64,0 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Andijon viloyati.	1162,9	112,4
Andijon shayar	351,0	104,8
Xonobod shayar	26,1	112,4
Oltinko'l tumani	43,4	106,3
Andijon tumani	91,0	108,8
Baliqchi tumani	16,3	107,6
Bo'ston tumani	35,0	109,9
Buloqboshi tumani	16,7	110,7
Jalaquduq tumani	39,7	102,9
Izboskan tumani	25,3	108,7
Ulug'nor tumani	15,9	85,0
Qo'rg'ontepa tumani	21,4	122,2
Asaka tumani	35,0	111,2
Marhamat tumani	38,2	108,6
Shahrixon tumani	64,0	103,5
Paxtaobod tumani	36,2	111,0
Xo'jaobod tumani	36,6	159,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 53,6 foizi yoki 623,5 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **92,1** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 7,9 %*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **752,5** mlrd so'm *hamda ulushi – 64,7 %*;

Norasmiy sektor – **318,3** mlrd so'm *hamda ulushi – 27,4 %*.

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (206,0 mlrd so'm), Andijon tuman (73,8 mlrd so'm) Shahrixon tuman (51,1 mlrd so'm) va Xo'jaobod tuman (30,0 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 89,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 90,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,1 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 9,5 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,3 % punktga kamayib 69,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,2 % punktga kamayib, 20,3 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shahar (23,4 %), Andijon tuman (8,9 %) va Oltinko'l tumani (5,8 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 11,2 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % punktga ko'payib 88,8 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shahar (23,4 %), Andijon tuman (8,9 %) va Oltinko'l tumani (5,8 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi va 3,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 96,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shaharda (32,2 %), Andijon tumanda (10,4 %) va Oltinko'l tumanda (4,5 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 92,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 166,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 5,4 % ga ko'payib, 7,9 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,7 foizi to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etgan holda 752,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,4 % ni yoki 318,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi. Shundan 215,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 71,9 mlrd so'mni va 92,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 30,9 mlrd so'mni va 105,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Andijon viloyati.	90,3	752,6	318,2	172,7	111,7	104,1
Andijon shayar	55,7	280,5	147,5	326,1	108,1	63,6
Xonobod shayar		20,5	46,3		121,8	90,5
Oltinko'l tumani		34,9	85,6		117,0	112,4
Andijon tumani	1,6	81,9	68,1	147,7	98,5	120,2
Baliqchi tumani		9,8	64,5		124,8	109,0
Bo'ston tumani		28,9	61,1		109,6	96,4
Buloqbooshi tumani	0,5	8,4	77,4	129,3	149,7	115,6
Jalaquduq tumani	7,1	22,5	101,6	78,5	155,5	130,3
Izboskan tumani		20,3	50,0		119,7	91,9
Ulug'nor tumani	2,0	8,5	54,7	66,2	193,4	121,3
Qo'rg'ontepa tumani	0,8	15,4	52,4	123,9	110,6	100,3
Asaka tumani	0,8	14,1	200,2		108,9	144,0
Marhamat tumani		31,6	66,1		128,2	58,6
Shahrixon tumani	0,1	56,0	79,2		108,1	112,0
Paxtaobod tumani	0,4	20,1	157,0		97,1	131,7
Xo'jaobod tumani	1,0	26,3	93,1		165,6	130,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon shaharida (2024-yilning mos davriga nisbatan 326,1 %), Andijon tumani (147,7 %) va Toshkent viloyatida (123,9 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buloqboshi tuman (2024-yilning mos davriga nisbatan 149,7 %), Ulug'nor tuman (193,4 %) va Xo'jaobod tuman (165,6 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Oltinko'l tuman (2024-yilning mos davriga nisbatan 112,4 %), Asaka tuman (144,0 %) va Paxtaobod tuman (131,7 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

A. Usmonov
74 224-80-00 (6020)

Manzil:

